

**XORAZMNING JANUBI-SHARQIY YO'NALISHDAGI SAVDO ALOQALARI TARIXI  
VA ULARDA NOMLARI KELITIRILGAN KARVONSAROY, QUDUQ VA RABOTLAR.**

**Omonboy Matqurbonov**

*Urganch Davlat Universiteti Tarix fakulteti*

*"Tarix" kafedrası o'qituvchisi.*

*e-mail: matqurbonovomonbek@gmail.com*

*Telefon raqam: 94 119 50 00*

**Annotatsiya:** *Maqola mavzusini yoritish orqali Xorazmning janubi-sharqiy yo'nalishida joylashgan shaharlar nomlari, savdo aloqalari tarixi, bu tarixiy jarayonlarda qaysi hududlar asosiy o'rinni egallaganligi, bu hududlarda karvon yo'li bo'ylab joylashgan infratuzilmalar: karvonsaroy, quduq, rabotlar nomlari haqida keng ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, ob'ektlar oraliq masofalari haqida ham ma'lumotlar mavjud.*

**Kalit so'zilar:** *Seladon, Hamdulloh Qazviniy, "Shahriston yo'li", V.V.Bartold, Rizoqulixon, "Shiszi".*

**Аннотация:** *Освещающая тему статьи, названия городов, расположенных в юго-восточном направлении Хорезма, историю торговых отношений, какие регионы занимали основное место в этих исторических процессах, названия инфраструктур, расположенных вдоль караванного пути в данные районы: караван-сарай, колодцы, работ информация предоставлена. Также имеется информация о расстояниях между объектами.*

**Ключевые слова:** *Селадон, Хамдуллах Казвиний, «Шахристан Род», В.В. Бартольд, Ризакулихан, «Шисзи».*

**Annotation:** *By covering the topic of the article, the names of the cities located in the south-eastern direction of Khorezm, the history of trade relations, which regions occupied the main place in these historical processes, the names of infrastructures located along the caravan route in these regions: caravanserai, wells, rabots. information provided. There is also information about the distances between objects.*

**Key words:** *Seladon, Hamdullah Qazvini, "Shahristan Road", V.V. Bartold, Rizaqulikhan, "Shiszi".*

Xorazmning janubi-sharqiy yo'nalishdagi savdo aloqalarida madaniyat, yangiliklar tashuvchisi sifatidagi asosiy davlatlardan biri Hindiston hisoblanib, savdo aloqalarining tarixi, uzoq davrlarga borib taqaladi. Turli tarixiy davrlarda har xil siyosiy jarayonlar ham ularni birlashtirgan. Ahamoniylar,

kushon imperiyasi va arab xalifaligi davrida Xorazm bilan Hindiston o'rtasidagi munosabatlar yaqinlashib, aloqalar ancha taraqqiy qilgan.

Yozma manbalarga murojaat qilganda ularda Hindistondan chetga chiqariladigan mahsulotlar to'g'risida ba'zi ma'lumotlar mavjudligini ko'rish mumkin. Xususan, paxta va sholining mazkur hududdan tarqalgani haqidagi malumotlarni uchratish mumkin.

Bundan tashqari Hindistondan zeb-ziynat buyumlari, oltin va kumushdan qilingan ko'zachalar, idishlar, fil suyagi va yog'ochning qattiq navlaridan tayyorlangan haykal va haykalchalar, ayniqsa, paxtadan to'qilgan nihoyatda nafis va sifatli gazlamalar va zirovarlar butun Sharqda va hatto Yevropada ham ma'lum va mashhur edi.

Peshovar, Mo'ltan, Shrinagar, Lahor va Dehli shaharlari yirik savdo-hunarmandchilik markazlari sanalgan.

Xorazm savdogarlari Hindiston bilan bo'lgan savdoda Amudaryo orqali Balxga, undan so'ng Qobul, G'azna, Lahor va nihoyat Dehligacha borganlar. Hindistonga ko'proq yilqi, qalayi, mis, oltin, kumush pullar va shu singarilar olib kelingan. Hindiston bilan savdo aloqalari, ayniqsa, Xorazmshoh-anushteginiylar davrida juda taraqqiy qildi. Chunki, endi Xorazm yerlari Hindiston bilan bevosita chegaraga aylandi.

Xorazmning janubi-sharqiy yo'nalishdagi savdo aloqalarida Xitoy ham alohida o'ringa ega. Arxeologik tadqiqotlar Xorazmning Xitoy bilan savdo aloqalari ancha qadimdan shakllanganini ko'rsatadi. Mashhur tarixchi Sima syan o'zining "Shiszi" ("Tarixiy esdaliklar") asarida shunday degan edi: - "Guyshuy (Amudaryo) daryosi bo'ylarida savdogar va tojirlar yashaydi. Ular suv va quruqlik yo'llari orqali o'z mollarinii qo'shni o'lkalarga va hatto minglab uzoqlikdagi o'lkalarga olib boradilar". Bu ma'lumot xorazmliklarga ham tegishli bo'lishi mumkin<sup>52</sup>.

Xitoydan Gobi cho'llari, Sharqiy Turkiston, Farg'ona va Tohariston orqali Xorazmga turli-tuman mahsulotlar olib kelingan. Xitoydan, asosan, ipak matolar, chinni idishlar keltirilgan.

Zamaxshar, Xiva va Mizdahkon shaharlaridan Xitoyning Tan sulolasi davriga oid turli chinni idishlar topildi. Arxeologik tadqiqotlar natijasida Xitoyning "seladon" tipidagi chinni idishlarning XII-XIII asrlarga oid Xorazm savdo shaharlaridan tez-tez topilishi ham savdo aloqalarining rivojlanganligini ko'rsatadi. Tabariy o'z asarida arab bosqini arafasida arablar Movarounnahrda ko'pgina Xitoy buyumlarini ko'rganliklarini yozib o'tadi. Keyingi asrlarda ham Movarounnahrda juda ko'plagan Xitoy

<sup>52</sup> Ртвеладзе Э. Великий Шелковый путь. Т. Ўзбекистон миллий энциклопедияси 1999. С.22.

buyumlari keltirilib, ularning ta'siri shu qadar kuchli bo'lganki, Saolibiy o'z asarida, keyinchalik Movarounnahr ustalari mahorat bilan ishlagan ko'pgina idishlarni arablar Xitoyniki deb atashganligini yozib o'tgan edi<sup>53</sup>.

Xorazmdan Xitoyga asosan suvsar, olmaxon, tulki, qunduz, quyon mo'ynalari, hamda ishlangan echki terilari olib kelingan<sup>54</sup>.

Xitoy bilan savdo munosabatlari asosan ikki yo'l bilan amalga oshirilgan. Birinchisi – Buyuk ipak yo'lining janubiy tarmog'i orqali bo'lib, Amudaryo chap qirg'og'i va o'ng qirg'og'i bo'yidagi savdo shaharlari hamda karvonsaroilar chizig'i bo'ylab Amulga kelinadi. Undan so'ng Buxoro, Samarqand, Shosh, Binket (Toshkent), Taroz (Jambul), Kulon, Merke, Bolasog'un, Suyob, Issiqko'lning janubiy qirg'og'i va Sharqiy Turkiston shaharlari orqali Xitoyga yetib kelingan. Bu aynan Buyuk Ipak yo'lining janubiy tarmog'i sanalib, yana, bundan tashqari, ikkinchi yo'l ham mavjud bo'lgan. Bu yo'l Urganchdan O'tror orqali Mo'g'ulistonga, undan so'ng Xitoyga olib borgan<sup>55</sup>.

Bu yo'llardan eng serqatnovi Movarounnahr orqali o'tuvchi janubiy tarmoq hisoblangan. Ammo bu savdo yo'lidagi va ularda joylashgan davlatlar taraqqiyoti uzoq davom etmagan. Tarix maydoniga shunday bir kuch keldiki, bu kuch ijtimoiy-iqtisodiy hayotni, savdo-sotiq rivojini ancha orqaga surib yubordi. Bu kuch mo'g'ullar istilosi edi. 1219-1221 yillar davomida mo'g'ullar Buyuk Xorazmshoh-anushteginlar imperiyasining asosiy qismi hisoblanmish - Movarounnahrni zabt etgach, Eron, Ozarbayjon, Kavkazorti, Iroq, Suriya va Falastinga xujum qildilar.

XIII asrning 80-yillarigacha mo'g'ullar Buyuk ipak yo'lining butun tarmog'ini o'z qo'llariga kiritishga muvaffaq bo'ladilar.

Mo'g'ul bosqini juda katta vayronagarchiliklar olib keldi. Buyuk ipak yo'lida joylashgan juda ko'pgina yirik shaharlar vayron qilindi. Ustahunarmandlarning ko'pchilik qismi Mo'g'ulistonga olib ketildi. Natijada xo'jalik ancha orqaga ketib, shahar va qishloqlar bir oz vaqt huvillab qoldi.

Mo'g'ullar hujumi oqibatida Eronning Nishopur, Ray, Qazvin, Hamadon, Tus, Hirot; Xurosonning Marv, Niso, Obivard; Afg'onistonning Qobul, Bomiyon, G'azna va Qandahor; Iroq va Suriyaning Bag'dod, Mosul, Xoms, Xalab shaharlari juda qattiq vayron qilindi.

Mashhur fors geografi Qazviniyning yozishicha: "Shubha yo'qki, Mo'g'ul davlati vujudga kelishi davomida keltirilgan vayronagarchilik va ommaviy qirg'inbarot shu darajadaki, agar bundan keyin ming yil davomida tinchlik

<sup>53</sup> Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия Москва. 1963. с.296.

<sup>54</sup> Шефер Э. Золотые персики Самарканда. Книга о чужеземных диковинах в империи Тан. –М.: ГРВЛ, 1981, с.147-148.

<sup>55</sup> Очерки истории Каракалпакской АССР. /Т.1, "Наука" Узбекской ССР, 1964 карта на с.116-117 (рис.31).

bo'lsa ham, ularni avvalgidek qilib tiklab bo'lmaydi va dunyo hech qachon bu bosqindan oldingi hayotga qayta olmaydi" <sup>56</sup>. Bu jumlar mashhur geograf tomonidan 1340 yilda yozilgan bo'lib, shuning o'zi ham ko'rsatib turibdiki, mo'g'ul bosqinidan yuz yil o'tgach ham, ilgari, X-XIII asrlardagi taraqqiyot hali tiklana olmagan edi.

Mo'g'ullar bosqini shu darajada katta vayronagarchilik keltirgan bo'lsa ham, bu hududlarda hayot abadiy so'nib qoldi degan gap emas. Mo'g'ullar ham iqtisodiyotning, ayniqsa, savdo-sotiqning taraqqiy qilishi juda katta ijobiy holat ekanligini yaxshi tushunganlar. Xuddi Xorazm va Movaraunnahr, Oltin O'rda va Xitoyda bo'lgani kabi mo'g'ullar Eron, Iroq, Kavkazorti va Yaqin Sharqda ham tez orada iqtisodiyotni tiklashga kirishdilar. 1236 yildayoq Ulug' xoqon O'g'adoyxon (1229-1239) Hirotni qaytadan tiklashga ruxsat berib, Mo'g'ulistondagi ko'pgina hunarmandlarni o'z yurtlariga qaytarib yuborishga ham ruxsat bergan<sup>57</sup>. Natijada XIII asrning ikkinchi yarmidanoq iqtisodiy hayotda biroz jonlanish kuzatilib, ilgari vayron qilingan shaharlarning ko'pchiligi tiklanib, yangilari barpo qilindi, sug'orish inshootlari ham ta'mirlandi.

Savdo-sotiq aloqalari ham to'xtab qolmadi. Savdo-sotiq rivojiga mo'g'ullarning, asosan, harbiy-strategik maqsadni ko'zlab, yo'llar va aloqalarning yaxshi ishlashini ta'minlashga intilishi ham turtki bo'ldi. Chunki bu yo'llardan savdogarlar ham foydalanardilar<sup>58</sup>.

Ilgarigi savdo yo'llari tiklanib, yangilari vujudga kela boshladi. Bu savdo yo'llarini musulmon savdogarlari, asosan, fors, xorazmlik va movarounnahrlik savdogarlar o'z qo'llariga olib, o'ziga xos savdo uyushmalari – "o'rtoq"larni vujudga keltirdilar.

Chingizxon davridanoq, Mo'g'ul xonlari savdogarlarga, Buyuk ipak yo'lidagi savdoga homiylik qila boshlagan edilar.

Xitoyda Hubilayxon savdo-sotiqni rivojlantirish maqsadida, metall pullarni, umuman yo'q qilib, qog'oz pullarni muomalaga kiritdi. Hatto u bu qog'oz pullarni juda qadrlil va talabchan pullarga aylantirishga erishdi ham<sup>59</sup>.

Yuqorida aytib o'tganimizdek Xorazm savdo shaharlari ham bu davrda tiklanib, Eron, Yaqin va O'rta Sharq, Kavkazorti, Hindiston va Xitoy bilan savdo munosabatlari rivojlandi. Buni arxeologik tadqiqotlar ham tasdiqlaydi.

Mazkur savdo-sotiq aloqalari qanday yo'llar orqali amalga oshirilganini bilishning ham ahamiyati katta. Biz uchun bu yerda, eng muhimi, Xorazmni

<sup>56</sup> Всемирная история. Т.3, –М.: Гос.изд.пол.лит., 1957, с.578.

<sup>57</sup> Всемирная история. Т.3, –М.: Гос.изд.пол.лит., 1957, с.578

<sup>58</sup> O'sha asar. 525b.

<sup>59</sup> O'sha asar. 526b.

Janubiy Turkmaniston va Xuroson bilan bog'lovchi karvon yo'llarini o'rganishdir.

Chunki, Eron bilan ham, Yaqin va O'rta Sharq bilan ham aynan shu yo'l bog'lovchi vosita sanalgan. Bu yo'llar Janubiy Turkmaniston va Xurosonda Buyuk ipak yo'lining ulkan janubiy tarmog'i bilan ulanib, Eron, Kavkazorti, Suriya, Misr, Iroq, Kichik Osiyo savdo shaharlari bilan bog'langan.

XX asrning 70-80-yillarida Qoraqum cho'llarida va Amudaryo bo'ylab o'tgan karvon yo'llarida arxeologik tadqiqot ishlari olib borilib, Xorazmni Marv vohasi, Janubiy va Janubi-G'arbiy Turkmaniston bilan bog'lovchi yo'llar mavjudligi aniqlandi. Marv bilan Xorazm oralig'ida Qoraqum orqali o'tuvchi bir necha karvon yo'llari mavjud bo'lgan. Shulardan biri asosiy yo'llardan chekkada, ya'ni o'tish qiyin bo'lgan cho'llardan o'tgan. Bu yo'lda yirik to'xtash joyi bo'lib, unda Minora nomli karvonsaroy bo'lgan.

Ashxaboddan Xorazmga boruvchi karvon yo'llari ham o'rganilgan. U manbalarda "Shahriston yo'li" nomi bilan mashhur bo'lgan.

Ashxaboddan shimolga yurilib, Yortigumbaz, Kashon quduqlari orqali Naxarli qudug'iga yetib kelingan. Naxarli qudug'idan 6 km shimoli-g'arbiy tomonda Kirpichli qudug'iga borilgan. O'rta asr manbalarida Shahriston bilan bir kun yo'l masofada, Xorazmga olib boruvchi yo'lda, yirik ko'p aholisi bo'lgan Kauk qishlog'i bo'lganligi eslatiladi. U Niso viloyatining eng shimoliy chekka qishlog'i bo'lgan. Turkman arxeologi D.Durdiev Kauk qishlog'i aynan shu Kirpichli qudug'i atrofida bo'lgan degan taxmini bildiradi<sup>60</sup>. Chunki quduq atrofidan o'rta asrlarga tegishli qurilish qoldiqlari va boshqa buyumlar topilgan. Keyingi quduq Uyuqli bo'lib, undan keyin Qarri-chirli-Beshqaq qudug'iga kelingan. Uyuqlidan 6 km janubi-g'arbda o'rta asrlarga mansub kichik bir qal'aning ham qoldig'i topilgan.

Beshqaqdan 4 km shimoli-sharqda, Ashxabod (Niso)dan taxminan 110-120 km shimoli-sharqda Qizilchaqal'a yirik qal'a-karvonsaroyi joylashganligi ma'lum bo'ldi. Qizilchaqal'adan keyin, Baxt qudug'i orqali o'tib Churchuri aholi manziliga yetib kelingan. U yerda ham kichik karvonsaroy mavjud bo'lgan. Churchuridan 85 km shimoli-sharqqa, Qizilchaqal'a, Gichgaldi, Qamishli, Ayoq quduqlari orqali yurilgach, Minora karvonsaroyiga yetib kelingan. Aynan shu Minora karvonsaroyidan yana boshqa yo'l, yuqorida ko'rsatib o'tgan Marvdan Xorazmga olib boruvchi yo'l o'tgan, yoki Marv-Xorazm yo'li Minorada Ashxabod (Niso) – Xorazm yo'li bilan tutashgan

<sup>60</sup> Дурдыев Д. Транскаракумский торговый путь из Хорезма в Южный Туркменистан. Новые исследования по археологии Туркменистана. Ашхабад, 1980, с.99.

bo'lishi mumkin. Xullas, Minoradan Xonquyi qudug'i orqali Marv vohasiga boruvchi yo'l bo'lgan<sup>61</sup>.

Minoradan 50 km shimoli-sharqda Xasarli karvonsaroyi borligi aniqlangan. Keyingi o'rta asr Xiva manbalarida Xasarlidan keyin to Xivagacha bo'lgan yo'lning to'rtta varianti mavjud bo'lgan. Shulardan bittasi manbalarda aniqroq ko'rsatilgan, ya'ni Xasarlidan so'ng Boboxono'yuaqli, Kengquduq, Yakkaso'zan (yana bir variantda So'zanli), Xonquduq Saygacha (boshqa variantda bu quduqqacha, yana bir quduq – Yelayirti ham ko'rsatilgan), Kesakli quduqlari orqali Xorazm cho'llariga chiqilib, shu yo'l bilan Qorako'lga va shundan keyin Xivaga yetib borilgan<sup>62</sup>. Ammo bu manbalarda Xiva shahriga olib borilganligi qayd etilgan yo'l o'rta asrlarda Zamaxsharga, undan so'ng Urganchga olib borilganligi qayd etiladi. Bu yo'lning Urganch, Zamaxshar, Shoxsanam, Shemoxaqal'a shaharlariga olib boruvchi boshqa tarmoqlari ham bo'lishi mumkin, deb taxmin qilinadi. Bu yo'ldagi karvonsaroylarning qurilishi X asrga oid bo'lsa kerak. Chunki karvonsaroylardan topilgan sopol buyumlari va boshqa xil buyum qoldiqlarining ko'pchiligi X-XIII asrlarga taalluqli. Siyosiy vaziyatni kuzatadigan bo'lsak, Xorazm aynan shu davrlarda birlashib, kuchli, markazlashgan davlat sifatida tarix maydoniga chiqqan edi. Bundan tashqari, xorazmliklar uchun Xurosonga olib boruvchi yanada qisqa yo'llar zarur ediki, bu somoniylar mulklarini chetlab o'tib, ularni boj to'lashdan xalos qilgan<sup>63</sup>.

Ana shunday sabablarga ko'ra, yuqorida ko'rsatib o'tilgan savdo yo'llari vujudga kelgan. Bu savdo yo'llarida ma'lum vaqt o'tgach, quduqlar yonida shinam qurilgan, mustahkam devorlar bilan himoyalangan, savdogarlar, yo'lovchilar, sayohatchilar va boshqa odamlar xavfsizligini kafolatlovchi karvonsaroylar qurilgan.

Xorazmni Yaqin va O'rta Sharq, Eron, Kichik Osiyo bilan bog'lovchi savdo yo'llari ichida, ayniqsa, Shimoli-Sharqiy Eronni Misriyon vohasi orqali Xorazm bilan aloqani ta'minlovchi karvon yo'llari yetarlicha to'liq o'rganilgan.

Mashhur fors geografi Hamdulloh Qazviniy o'zining "Nuzxat ul-qulub" ("Qalblar oromi") asarida Xuroson va Mozandorondagi savdo yo'llari hamda Eronni Xorazm bilan bog'lovchi karvon yo'llari to'g'risida batafsil ma'lumotlar keltirib o'tadi.

<sup>61</sup> O'sha asar. 102b.

<sup>62</sup> Дурдыев Д. Транскаракумский торговый путь из Хорезма в Южный Туркменистан. Новые исследования по археологии Туркменистана. Ашхабад, 1980, с.103.

<sup>63</sup> Дурдыев Д. Транскаракумский торговый путь из Хорезма в Южный Туркменистан. Новые исследования по археологии Туркменистана. Ашхабад, 1980, с.105.

**Bistom-Dehiston yo'li.** Bistomdan Gandgacha 7 farsax (taxm. 46 km); Ganddan Milobodgacha 6 farsax, Miloboddan Musobodgacha 5 farsax; Musoboddan Jurjongacha yana 5 farsax. Hammasi bo'lib Bistomdan Jurjongacha 23 farsax (taxm. 150 km)ni tashkil qiladi.

V.V.Bartoldning ta'kidlashicha, 23 farsax yo'lni karvonlar 4 kunda bosib o'tganlar. Bundan kelib chiqib, Bistomdan Dehistongacha bo'lgan masofani Jurjon orqali 8 kunda bosib o'tganlar<sup>64</sup>.

Bu yo'ldan tashqari, yana boshqa yo'l ham mavjud bo'lishi mumkinki, Abeskun bilan Dehistonni bog'lovchi to'g'ri yo'l bo'lib, Dehistonni Eronning boshqa shaharlari bilan ham bog'lagan. Al-Istaxriy va Ibn Xavqallar Dehiston bilan Abeskun oralig'idagi masofani 50 farsax bo'lgan, deb bejiz eslatib o'tmaganlar. Bunga o'z e'tiborini qaratgan Bartold: "Jurjon daryosining quyilish joyidan boshlab 50 farsax masofa, bizni Bolxon bo'xtasiga olib kelishi kerak edi, lekin bu fikr boshqa yanada aniqroq ma'lumotga to'g'ri kelmaydi", - deya ta'kidlagan edi. So'ngra u Dehistondan Urganchgacha bo'lgan yo'ldagi ko'plab to'xtash joylarini sanab o'tadi<sup>65</sup>.

**Dehiston - Ko'hna Urganch yo'li.** Qazviniyning ta'kidlashicha, Dehistondan Xorazmga olib boruvchi yo'ldagi birinchi to'xtash manzili – bu Gazbini raboti bo'lib, Dehistondan 7 farsax masofada joylashgan. Undan Abul Abbas rabotigacha 9 farsax. Abul Abosdan Ibn Toxir rabotigacha 7 farsax: Undan Farovagacha 7 farsax, keyin Xishti-Puxtgacha (pishgan g'ishtdan tiklangan rabot) 8 farsax. Xishti-Puxtdan Xushabdongacha 7 farsax. Undan Tamg'ach rabotigacha 7 farsax. Tamg'achdan Karvongohgacha 7 farsax. Undan Sarxang rabotigacha 9 farsax. Sarxangdan Minoragohgacha 7 farsax. Minoragohdan Silbaligacha 8 farsax. Silbalidan Mushki-Mabnigacha 8 farsax. Mushki-Mabnidan Maryam rabotigacha 9 farsax. Maryamdan Xorazmi-Nav (Yangi Xorazm)gacha 8 farsax. Xorazmi-Navdan Xulmi-Navgacha (Yangi Xulm) 6 farsax. Xulmi-Navdan Urganchgacha 4 farsax. Shunday qilib, Dehistondan Urganchgacha masofa 110 farsaxni tashkil qiladi.

Ammo sanab o'tilgan rabotlar orasidagi masofa Qazviniy ta'kidlaganidek 110 farsax emas, 118 farsaxni tashkil qiladi<sup>66</sup>.

Shunisi qiziqki, Qazviniyning yo'lnomasini e'lon qilgan V.V.Bartold malumotlarida 15 ta rabot nomi ko'rsatib o'tilgan ediki, ular orasidagi masofa ham 110 farsaxga to'g'ri keladi. Bundan tashqari Qazviniy ta'kidlagan Minoragoh bilan Mushki-Mabni orasidagi Silbali raboti,

<sup>64</sup> Бартольд В.В. Дорожник от Бистама до Куны-Ургенча. -Сочинения. –М.: «Наука», 1965, т.3, с. 262.

<sup>65</sup> Бартольд В.В. Сведения об Аральском море и низовьях Амударьи с древнейших времен до XVIII в. //Сочинения. –М.: «Наука», 1965, т.3, с.46.

<sup>66</sup> Атагарьев Е. Средневековый Дехистан. –Л.: 1986, с.152.

V.V.Bartold chop ettirgan ro'yxatda ko'rsatib o'tilmagan. Bu yerda ko'proq V.V.Bartold haq bo'lsa kerak, chunki u ro'yxatdagi rabotlar nomini bir qancha manbalarga asoslanib tuzib chiqqan edi.

V.V.Bartold yo'l manzillarini e'lon qilish bilan cheklanib qolmasdan, ularning ahamiyatini ham ko'rsatib o'tishga harakat qilgan. U bir necha rabotlar o'rnini aniqlashga urinib ko'rdi. Masalan Vezave (yoki Vezare) shahri, uning fikricha, Turkmanistonning Qizilarvot shahri Yaqinidagi Farovaga to'g'ri keladi. Hozirgi kundagi Qurtish qudug'i esa Qazviniy ko'rsatib o'tgan Karvongohga to'g'ri keladi. Bartold bu manzillar orasidagi masofaning to'g'riligiga juda ishongan edi. Uning yozishicha "Hamdulloh Qazviniy o'zining yo'l nomasini tuzish paytida mo'g'ul sultoni O'ljoytu (1304-1316) davrida tuzilgan ba'zi yo'llarning rasmiy o'lchamlari to'g'risidagi ma'lumotnomadan foydalangan"<sup>67</sup>.

Erondan Xorazmga olib boruvchi savdo yo'llari to'g'risidagi ma'lumotlar va dalillar yig'ishda Eron ma'murlari faqat tinch savdo aloqalari olib borish maqsadini ko'zlamagan edilar. Bu ma'lumotlar bosqinlar uyushtirish uchun ham zarur edi<sup>68</sup>.

Karvon yo'lining Shimoliy tarmog'i 50-yillarda S.P.Tolstov tomonidan o'rganilgan bo'lib, u, bu karvon yo'llari faqat o'rta asrlarga xos degan fikrni bildirgan<sup>69</sup>. S.P.Tolstov ham Qazviniy ko'rsatib o'tgan manzilgohlarning hozirgi kundagi qaysi manzilga to'g'ri kelishini aniqlashga uringan. Masalan, u, Devqal'a qal'asini Qazviniydagi Sarxang raboti, O'rta Quyi qudug'ini esa Karvongoh, Kirpichlini – Xishti-Puxta, Talayxonotani – Tamg'ach raboti o'rnida bo'lgan, degan xulosaga kelgan. U ko'rsatib o'tgan karvonsaroylar yumaloq shaklda bo'lib, Mo'g'ul bosqinigacha bo'lgan davrga, ya'ni X-XIII asrlarga oiddir<sup>70</sup>.

Turkman arxeologi X.Yusupov Dehistondan Xorazmga olib boruvchi karvon yo'lining janubiy tarmog'ini tadqiq qilib, Qazviniy yo'l nomasida eslatilgan 15 ta manzilgohning hozirgi kundagi o'rnini aniqlashga harakat qildi. U Gazbin rabotini – hozirgi kundagi Tansiqli-Depe (El-Ota) xarobalariga qiyoslagan bo'lsa, Abul-Abbos rabotini – Donootaga, Ibn Tohirni – Uzunsuv xarobalariga; Ferovani – Parouga; Xishti-Puxtani – Damirjon Otaga (Tutli posyolkasi yonidagi), Xushabdanni – Tomli qudug'i yonidagi karvonsaroyga, Tamg'achni – Dimlioka yonidagi karvonsaroyga; Karvongoh rabotini – Igdiqal'aga, Sarxang rabotini Oqyaylaga, Minoragoh rabotini – Talayxonota (O'rtaquyu qudug'i yonida), Mushki-Mabni rabotini – Devqal'a xarobalariga,

<sup>67</sup> Атагарриев Е. Средневековый Дехистан. –Л.: 1986, с.152-153.

<sup>68</sup> Атагарриев Е. Средневековый Дехистан. –Л.: 1986, с.153.

<sup>69</sup> O'sha asar.:153b.

<sup>70</sup> Толстов С.П. Древний Хорезм. –М.: 1948, с.166.



Maryam manzilgohini – Nayza-Xol xarobalariga, Xorazmi-Nav manzilgohini – Yorbakir qa'lasini xarobalariga, Xulmi-Nov manzilgohini esa Ko'na Urganchdan 24 km janubi-g'arbdagi Xaba o'rniga qiyoslaydi<sup>71</sup>.

Hamdulloh Qazviniy	V.V.Bartold	S.P.Tolstov	X.Yusupov
<b>Gazbini</b>	Kermin	--	Tansiqlidepe (El-ota)
Abul Abbos	Abul Abbos	--	Donoota
Ibn Tohir	Abu Tohir	--	Uzunsuv xarobalari
Farova	Vezava (yoki Vezare)	--	Parau
Xishti-Puxta (pishgan g'ishtdan qurilgan rabot)	Pishgan g'ishtdan qurilgan rabot (Xishti- Puxta)	Kirpichli	Tutli posyolkasi yonidagi Demirjon ota xarobasi
Xushabdon	Xushabdon (Sho'r suvli joy)	--	Tomli qudug'i yonidagi karvonsaroy
Tamg'och	Tamg'och	Taloyxonota karvonsaroyi	Dinglija qudug'i yonidagi karvonsaroy
Karvongoh (Karvonlar joyi)	Karvongoh	O'rtaquyu yonidagi karvonsaroy	Igdiqal'a
Sarxang	Rabot Sarxang (harbiy boshliq raboti)	Devqal'a karvonsaroyi	Oqayla
Minoragoh (Minoralar joyi)	Minoragoh	--	O'rtaquyi xarobalari yonidagi Talayxonota karvonsaroyi
Silbali	--	--	--
Mushki-Mabni	Mushki-bini (Burun uchun mushk)	--	Devqal'a xarobasi
Maryam	Raboti Maryam (Mariya Raboti)	--	Nayza-Xol xarobasi
Xorazmi-Nov (Yangi Xorazm)	Xorazmi – Novdu	Yorbakir xaro- basi yonidagi karvonsaroy	Yorbakir xarobasi
Xulmi-Nov (Yangi Xulm)	Xulmi – Novdu	--	Ko'hna Urganchdan 24 km janubi-g'arbdagi xarobalar
Gurganj	Urganch	Ko'hna Urganch	Ko'hna Urganch

Bu yo'ldan Atrek daryosidan shimoli-sharq yo'nalishi bo'yicha, g'arbiy Kopedtog' tog' tizmasi orqali yurilib, hozirgi Qizilravot hududiga chiqilgan.

Bu yerdan qadimgi daryo oqimlari vodiysi orqali yo'l Demirjonata (Tutli) karvonsaroyiga yetib keladi. Keyin karvon yo'li qumlik, Tomli va Dingli karvonsaroylari orqali, Igdi qudug'i yoniga, Uzboyga chiqilgan. Igdidan

<sup>71</sup> Юсупов Х. Развалины рабата Тансыклы-депе: (К вопросу о трассе южного отрезка пути Хорезм-Иран Хамдаллаха Қазвини). //Каракумские древности. –Ашхабад, 1970, вып.3, с.133-136.

Oqyayla va Yortigumbaz karvonsaroylaridan o'tilgach, yo'l Qurtishbobo degan joyga chiqadi. Shu yerdan yo'l ikkiga bo'linib, biri Kopedtog' tog'oldi hududiga, Gizilgati, Chairli, Bostansha (Kirpili) va Qozi karvonsaroylari orqali Shahrislom shahriga olib borgan.

Xorazmga olib boruvchi ikkinchi asosiy yo'l – Kurtishdan Uzboyning chap qirg'og'i bo'ylab, Talayxonota, Nazarqaqi, O'rtaquyi, Devqal'a, Xatib, Shohsanam (Suburni) kabi karvonsaroy va shaharlari orqali Ko'hna Urganchga yetib kelgan<sup>72</sup>.

Shunday qilib, Hamdulloh Qazviniy ma'lumoti arxeologik tadqiqotlar natijasida to'liq tasdiqlanib, u keltirib o'tgan joy nomlarining hozirgi kundagi joylarning qaysi biriga to'g'ri kelishi aniqlandi<sup>73</sup>.

Bu uzoq karvon yo'llarining ko'p asrlardan beri faoliyat yuritib kelayotgani dalili sifatida, massaget qabilalari yodgorliklaridan topilgan Shimoliy Hindistondan keltirilgan marjonlar, Kavkaz (O'rtayer dengizi) sopol buyumlari, Misr chinnisi va Isidaning bronza haykalchasi kabi chetdan keltirilgan buyumlar xizmat qiladi. Yana shunisi muhimki, Qazviniy yozib qoldirgan Dehistondan Xorazmga olib boruvchi karvon yo'lining Donotagacha bo'lgan janubiy tarmog'idan, XIX asrda Eronning Xivaga yuborilgan elchisi Rizoqulixon o'tgan edi.

Astroboddan Xivagacha (Ko'hna Urganchgacha) bo'lgan yo'lni tasvirlar ekan, Rizoqulixon uning uzunligi 20 kundan ortiqroq vaqtda bosib o'tiladigan yo'l bo'lganligini ta'kidlaydi<sup>74</sup>. Har kuni karvonlar ikkita manzilni bosib o'tganki, bu umuman, 40 ta manzilni tashkil qilishi kerak edi. N.F.Petrovskiy fikricha, karvonlar uchun 1 farsax bu o'rtacha bir soatlik yo'ldir<sup>75</sup>.

Xurosondan Xorazmga boruvchi yo'llardan yana biri – bu Marv shahridan boshlanib, Amulga yetib borgan. Undan so'ng Amuldan Amudaryoning har ikkala qirg'og'idan Xorazmga olib boruvchi butun bir karvonsaroylar va shaharlarigacha cho'zilib ketgan edi. Marvdan to'g'ri Nushkari raboti bilan bog'lanib keyin o'sha yuqoridagi yo'l bo'ylab Xorazmga boruvchi yo'l ham bo'lgan. Xullas, Amuldan boshlangan yo'l, chap qirg'oq Amudaryo bo'ylab Deynov, O'rtatepa, Movizotatepa, Tomoqir, Sanrabort, Kabakli, Qo'shqal'a -1,2, Tuproqqal'a, Uchxarsang, Ketmonchi, Gugerdli, Bayroqtepa, Donisherqal'a, Oqqal'a, Choshqal'a, Otaturkqal'a kabi karvonsaroy - rabotlar hamda Tohiriya (Doyaxotin),

<sup>72</sup> Юсупов Х., Аширов А. Караванные пути в Каракумах. Города и каравансарай на трассах... с.48-49.

<sup>73</sup> Юсупов Х. Археологические работы в предгорьях Северо-Западного Копетдага между Сарыкамышем и Кзыл-Арватом. //Каракумские древности, 1972, вып.4, с.134-141.

<sup>74</sup> Атагарриев Е. Средневековый Дехистан.Л.:Наука,1986. с.153-154.

<sup>75</sup> Петровский Н.Ф. Древние арабские дорожники по среднеазиатским местностям. –Т.: 1894, с.7.

Darg'on, Jigarband, Sadvar, Xazorasp, Xonqa, Gurlan, Porsu kabi shaharlar orqali Gurganjga yetib kelgan. Bu yo'llardan tashqari, Maqdisiy ko'rsatib o'tgan va Gurganjni Xuroson bilan bog'lovchi yo'l ham mavjud bo'lgan. Bu yo'l 9 kunlik bo'lib, so'nggi manzil Farova (Afrava) sanalgan.

Yo'lning bir qismi Uzboy yoqalab ketgan. Bundan tashqari, har bir manzil 1 kunlik yo'lda joylashgan. Ardakuva, Baxan raboti, Mahdi raboti, Miyonshoh raboti, Al-Hakim qudug'i, Abu Saxl raboti, Dugaj raboti, Jafar raboti shular jumlasidandir<sup>76</sup>.

Hamdulloh Qazvinii va Xoji Xalfalar esa Marvdan Gurganjga boruvchi yana bir yo'lni keltirib o'tadilar. Marvdan Sukri yoki Safargacha – 5 farsax; Sukridan Obodonganigacha – 2 farsax, Obodonganjdan Suron rabotigacha – 8 farsax, Birundan Nushakir (Nushakird) rabotigacha – 7 farsax, Nushakirdan Sangobodgacha – 7 farsax, Sangoboddan Tohiriyagacha – 6 farsax, Tohiriyadan Bud (Budina) rabotigacha – 10 farsax, Buddan Darg'ongacha – 10 farsax, Darg'ondan Jigarbandgacha – 7 farsax, Jigarbanddan Dexoni-Shir rabotigacha – 5 farsax, Dexoni-Shirdan Sadvar (Sadur)gacha – 4 farsax, Sadvardan Xazoraspgacha – 10 farsax, Xazoraspdan Dehi-Ozroqqacha – 10 farsax, Dehi-Ozroqdan Ardaxushmitangacha – 7 farsax, Ardaxushmitandan Andarastangacha – 6 farsax, Andarastandan Nuzvargacha – 2 farsax, Nuzvardan Gurganjgacha esa – 6 farsax. Shunday qilib Marv-Gurganj yo'li ham, xuddi Dehiston-Gurganj yo'li kabi 110 farsaxni tashkil kiladi<sup>77</sup>.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, Xorazmning janubi-sharqiy yo'nalishdagi shahar va qishloqlari juda ko'plab davlatlarni bir-biri bilan birlashtirishda platsdarm vazifasini bajargan. Savdo-sotiq masalasida eksport va import qilingan mahsulotlar haqida ma'lumot berishi bilan birgalikda, bu yo'nalish tarixining o'rganilishi o'z navbatida, juda ko'plab shahar va qishloqlar nomlarini va aynan tarmoq yo'nalishi bo'ylab mavjud bo'lgan karvonsaroy, quduq(sardoba) hamda rabotlar nomlarini va oraliq masofalari haqida ham bilish imkoniyatini yaratib beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Ртвеладзе Э. Великий Шелковый путь.Т.Ўзбекистон миллий энциклопедияси 1999.
2. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия Москва. 1963. с.296.

<sup>76</sup> Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия Москва.:1963.с.210.

<sup>77</sup> Бартольд В.В. Туркестан в эпоху... с.211.

3. Шефер Э. Золотые персики Самарканда. Книга о чужеземных диковинах в империи Тан. –М.: ГРВЛ, 1981.
4. Очерки истории Каракалпакской АССР. /Т.1, "Наука" Узбекской ССР, 1964.
5. Всемирная история. Т.3, –М.: Гос.изд.пол.лит., 1957.
6. Дурдыев Д. Транскаракумский торговый путь из Хорезма в Южный Туркменистан. Новые исследования по археологии Туркменистана. Ашхабад, 1980.
7. Бартольд В.В. Дорожник от Бистама до Куня-Ургенча. - Сочинения. –М.: «Наука», 1965, т.3.
8. Бартольд В.В. Сведения об Аральском море и низовьях Амударьи с древнейших времен до XVIII в. //Сочинения. –М.: «Наука», 1965, т.3.
9. Атагарриев Е. Средневековый Дехистан. –Л.: 1986.
10. Толстов С.П. Древний Хорезм. –М.: 1948.
11. Юсупов Х. Развалины рабата Тансыклы-депе: (К вопросу о трассе южного отрезка пути Хорезм-Иран Ҳамдаллаха Қазвини). //Каракумские древности. –Ашхабад, 1970, вып.3.
12. Юсупов Х. Археологические работы в предгорьях Северо-Западного Копетдага между Сарыкамышем и Кзыл-Арватом. //Каракумские древности, 1972, вып.4.
13. Петровский Н.Ф. Древние арабские дорожники по среднеазиатским местностям. –Т.: 1894.